



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 08 | pp. 61-67 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

SHAXSIY SUG'URTA XIZMATLARINING DINAMIKASI VA TARKIBIY O'ZGARISHLARI



Shukurova Sarvinoz Abdivaxobovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

E-mail: shukurovasarvinoz749@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ishda O'zbekiston sug'urta bozorida shaxsiy sug'urta xizmatlarining rivojlanish dinamikasi va tarkibiy o'zgarishlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda sohaning so'nggi yillardagi o'sish sur'atlari, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning shaxsiy sug'urtaga ta'siri hamda hayot sug'urtasi, sog'liqni sug'urtalash, baxtsiz hodisalardan sug'urta kabi yo'nalishlar bo'yicha o'zgarishlar yoritilgan. Shuningdek, aholining sug'urta madaniyati va talabining ortib borishi, davlat tomonidan yaratilayotgan huquqiy-me'yoriy baza hamda xususiy sug'urta kompaniyalari faoliyatining kengayishi natijasida shaxsiy sug'urta segmentida yangi mahsulotlar va xizmatlar paydo bo'layotgani ko'rsatib o'tilgan. Olingan natijalar asosida shaxsiy sug'urta xizmatlari tarkibidagi diversifikatsiya jarayonlari, bozor ishtirokchilarining ulushi hamda istiqboldagi rivojlanish tendensiyalari bo'yicha ilmiy xulosalar beriladi. Ushbu tadqiqot natijalari sug'urta siyosatini takomillashtirish, aholining moliyaviy himoyasini kuchaytirish hamda sug'urta kompaniyalari uchun samarali strategiyalar ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tayanch so'zlar: shaxsiy sug'urta, sug'urta bozori, hayot sug'urtasi, sug'urtasi shartnomalari, baxtsiz hodisalardan sug'urta, sug'urta mukofoti, sug'urtasi summasi, sug'urtasi majburiyatlari, to'lov muddati, sug'urta kompaniyalari.

Аннотация. В данном научном исследовании проводится анализ динамики развития и структурных изменений личного страхования на страховом рынке Узбекистана. В работе рассматриваются темпы роста отрасли за последние годы, влияние демографических и социально-экономических факторов на личное страхование, а также изменения в таких направлениях, как страхование жизни, медицинское страхование и страхование от несчастных случаев. Кроме того, отмечено, что с ростом страховой культуры и спроса среди населения, созданием государством правовой и нормативной базы, а также расширением деятельности частных страховых компаний в сегменте личного страхования появляются новые продукты и услуги. На основе полученных результатов даны научные выводы о процессах диверсификации в составе страховых услуг, доле участников рынка и перспективных тенденциях развития. Результаты данного исследования имеют практическое значение для совершенствования страховой политики, усиления финансовой защиты населения и разработки эффективных стратегий для страховых компаний.

Ключевые слова: личное страхование, страховой рынок, страхование жизни, страховые договоры, страхование от несчастных случаев, страховая премия, страховая сумма, страховые обязательства, срок выплаты, страховые компании.

Annotation. This scientific study analyzes the dynamics and structural changes in personal insurance services in the insurance market of Uzbekistan. The research examines recent growth trends in the sector, the impact of demographic and socio-economic factors on personal insurance, as well as developments in areas such as life insurance, health insurance, and accident insurance. It also highlights how the rising insurance awareness and demand among the population, the creation of a legal and regulatory framework by the state, and the expansion of private insurance companies' activities have led to the emergence of new products and services within the personal insurance segment. Based on the obtained results, the study provides scientific conclusions regarding diversification processes in personal insurance services, the market share of participants, and future development trends. The outcomes of this research hold practical significance for improving insurance policies, strengthening the financial protection of the population, and developing effective strategies for insurance companies.

Keywords: personal insurance, insurance market, life insurance, insurance contracts, accident insurance, insurance premium, sum insured, insurance liabilities, payment term, insurance companies.

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta tizimi aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiyotda investitsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi. Xususan, shaxsiy sug'urta xizmatlari aholining hayoti, salomatligi va mehnat qobiliyatini himoya qilish orqali ularning moliyaviy xavfsizligini ta'minlaydi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, sug'urta bozorining barqaror va diversifikatsiyalashgan rivojlanishi bevosita shaxsiy sug'urtaning kengayishi bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekiston sug'urta bozorida so'nggi yillarda jiddiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, sug'urta kompaniyalari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar va aholining sug'urta savodxonligi oshishi natijasida shaxsiy sug'urta segmenti bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga, aholining demografik tarkibidagi o'zgarishlar, daromadlarning o'sishi va iste'molchilarning moliyaviy xulq-atvori shaxsiy sug'urtaga bo'lgan talabni belgilovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur mavzu dolzarbligi shundaki, O'zbekiston sug'urta bozorida shaxsiy sug'urta xizmatlari umumiy sug'urta mukofotlari tarkibida hali ham nisbatan past ulushga ega bo'lsa-da, istiqbolda uning kengayishi kutilmoqda. Shu sababli, shaxsiy sug'urtaning rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari ilmiy jihatdan o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va samarali takliflar ishlab chiqish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shu o'rinda tadqiqotning asosiy maqsadi – O'zbekiston sug'urta bozorida shaxsiy sug'urta xizmatlarining rivojlanish jarayonlarini, ularning tarkibiy xususiyatlarini va istiqboldagi yo'nalishlarini aniqlashdan iboratdir. Tadqiqot vazifalari esa sug'urta xizmatlarining dinamikasini tahlil qilish, xalqaro tajribani solishtirish, mavjud

muammolarni aniqlash hamda kelgusida shaxsiy sug'urtaning samarali rivojlanishi uchun ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar tahlili

Xorijiy ilmiy manbalarda shaxsiy sug'urta xizmatlarining iqtisodiy tizimdagi roli va ahamiyatini o'rganishga qaratilgan qimmatli ilmiy izlanishlar ko'plab tajribali mutaxassislar tomonidan olib borilgan. Xususan, milliy iqtisodiyotda shaxsiy sug'urtalash tizimining shakllanish jarayoni, uning moliyaviy barqarorlikka ta'siri, aholi farovonligini oshirish hamda jamg'arma mexanizmlarini kuchaytirishdagi o'rni yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bular asosan N.N. Abashin, M.N. Yevsevleeva, N.A. Lupey, S.V. Stepanova, N.P. Saxirova, A.A. Gvozdenko kabi taniqli xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvlar asosida tahliliy ishlar amalga oshirilgan.

O'zbekistonlik yetuk iqtisodchi olimlar tomonidan raqamli sug'urta mahsulotlarining nazariy konsepsiyalari, amaliy qo'llash mexanizmlari hamda ularning funksional jihatlari yuzasidan muntazam ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, X.M. Shennayev, G.T. Xoliqulova, I.G'. Kenjayev, N.A. Mavrulova, I. Abduraxmonov, F.Sh.Xamrayevalar kabi malakali mutaxassislar tomonidan zamonaviy texnologiyalarni sug'urta tizimiga integratsiya qilish, raqamli platformalar negizida xizmat ko'rsatish jarayonlarini rivojlantirish hamda elektron sug'urta tizimlari orqali mijozlarga qo'shimcha qulayliklar yaratishga qaratilgan dolzarb ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

O'zbekiston sug'urta bozorining bugungi holatini atroflicha o'rganishda statistik ma'lumotlar, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, ilg'or xorijiy tajribalar hamda mamlakatning makroiqtisodiy sharoitlari kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida 2020–2024 yillar davomida shaxsiy sug'urtasi xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari – xususan, yig'ilgan sug'urta mukofotlari, amalga oshirilgan to'lovlar hamda ularning yalpi ichki mahsulot (YaIM)dagi ulushi asosida sohaning o'sish dinamikasi, barqarorlik darajasi va muvozanatlilik holati baholandi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi shaxsiy sug'urtaning iqtisodiy mohiyatini, uning turli jihatlari, hamda sug'urta tizimini rivojlantirishda yuzaga keladigan muammolarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida quyidagi vazifalar bajarilishi mumkin:

- Shaxsiy sug'urta tizimining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish.
- Sug'urta bozorining holatini va rivojlanish tendensiyalarini o'rganish.
- Shaxsiy sug'urtaning turli sohalarda (hayot sug'urtasi, sog'liqni sug'urtalash, mehnat sug'urtasi) roli va ahamiyatini aniqlash.
- Sug'urta kompaniyalarining faoliyatini baholash.
- Sug'urta sohasidagi normativ-huquqiy bazani tahlil qilish va takomillashtirish yo'llarini ko'rsatish.

Tahlil va natijalar

Hozirgi davrda sug'urta kompaniyalari tomonidan nafaqat mamlakatimiz ichkarisida, balki xorijiy mijozlar e'tiborini qozona oladigan keng ko'lamli sug'urta

mahsulotlarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish, mintaqaviy darajadagi sug'urta xizmatlarini kengaytirish hamda sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini oqilona boshqarish milliy sug'urta tizimini rivojlantirishning eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish tizimini rivojlantirish masalalariga to'xtalib o'tilgan. Taraqqiyot strategiyasining IV ustuvor yo'nalishida "56-maqsdada: Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, budjet mablag'laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug'urtalash amaliyotini joriy qilish" hamda "... aholini tibbiy sug'urtalash tizimini bosqichma-bosqich joriy qilish" [1] vazifasi belgilangan.


1699 yil Angliyada shaxsiy sug'urta bilan shug'ullanadigan dastlabki sug'urta tashkiloti barpo etilgan va u avvalo beva ayollar hamda yetim bolalarni sug'urtasini amalga oshirgan. Bu jamiyatning nomi "Ekvatebl" deb atalgan. XVIII asrda esa Germaniyada suyak sinishi holatlaridan himoyalash bo'yicha o'zaro yordam uyushmalari tashkil etilgan. 1849 yili Angliyada temir yo'llarda baxtsiz hodisalardan sug'urtalash bo'yicha dastlabki «Railway Death Rassengers Company» nomli sug'urta kompaniyasi tuzildi [2].

Shaxsiy sug'urtaning ajralmas bo'g'ini bo'lgan fuqarolarni baxtsiz hodisadan sug'urtasining joriy etilishi bir necha asrlik tarixga ega. 1541 yilda Evropada mavjud bo'lgan dengiz huquqi qoidalariga ko'ra, kema egalari shu kema kapitanini baxtsiz hodisalardan sug'urtalash shart bo'lgan [3].

1991 yilda O'zbekistonning o'z siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini qo'lga kiritishi hayotimizning barcha jabhalari qatorida sug'urta sohasini ham bozor munosabatlari tamoyillariga mos ravishda rivojlanishi uchun sharoit yaratdi. To'g'ri, mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiyotda ro'y bergan keskin o'zgarishlar qisqa muddat bo'lsada pulning qadsizlanishiga, pirovardida, aholi turmush darajasining pasayib ketishiga olib keldi [4].

Shaxsiy sug'urta o'z mohiyatiga ko'ra uzoq muddatli xarakterga ega bo'lib, sug'urta kompaniyasini yoki sug'urta shartnomasini almashtirish sug'urta qildiruvchi uchun ham, sug'urtalangan obyekt bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlar uchun ham salbiy oqibatlariga olib kelishi ehtimoli mavjud. Amaliyotda shaxsiy sug'urta polisiga ega bo'lgan mijozlarning aksariyati, majburiyatlar to'liq bajarilgach, tuzilgan shartnomani tezda unutishga va unga qayta murojaat qilmaslikka moyillik bildiradi.

Shaxsiy sug'urta shartnomasini tuzish jarayoni murakkab va ko'p bosqichli huquqiy-iqtisodiy protseduradan iborat bo'lib, u sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchi o'rtasidagi o'zaro majburiyat va huquqlarni aniq belgilashga qaratilgan. Mazkur jarayonning bosqichlari va ularning o'zaro uzviy bog'liqligi 1-rasmda tizimli ravishda aks ettirilgan. Jarayon odatda quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: sug'urta ehtiyojlarini aniqlash va tahlil qilish; sug'urta mahsulotining shartlari bilan tanishish; risklarni baholash va sug'urta mukofoti miqdorini hisoblash; tomonlar o'rtasida muzokara olib borish; sug'urta shartnomasini rasmiylashtirish hamda huquqiy kuchga kiritish. Har bir bosqichning izchil bajarilishi shartnoma shaffofligini ta'minlab, sug'urta munosabatlarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.



1-rasm. Shaxsiy sug'urta shartnomasini tuzish jarayoni ketma-ketligi[5].

Shaxsiy sug'urta shartnomasini tuzish jarayoni sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchi o'rtasida huquqiy va iqtisodiy majburiyatlarni aniq belgilashga qaratilgan bo'lib, ushbu jarayonda tomonlar 1-rasmda keltirilgan ketma-ketlikdagi shartlar bo'yicha o'zaro kelishuvga erishishi zarur. Mazkur bosqichlar shartnoma shartlarini muvofiqlashtirish, sug'urta risklarini baholash, sug'urta mukofotlari miqdorini aniqlash hamda shartnomani huquqiy jihatdan rasmiylashtirishni o'z ichiga oladi. Ushbu ketma-ketlikka rioya etilishi sug'urta munosabatlarining shaffofligi va barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.


Sug'urta jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida tabiiy ofatlar va inson hayoti bilan bog'liq xavf-xatarlarga qarshi kurashish vositasi sifatida yuzaga keldi. Vaqt o'tishi bilan sug'urta, o'z rivojlanishining keyingi bosqichlarida, alohida iqtisodiy tizim va butun jamiyatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydigan muhim mexanizmga aylanishi bilan ajralib turdi. Shaxsiy sug'urta zamonaviy iqtisodiy tizimda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u inson hayoti, salomatligi, mehnat faoliyati, mol-mulki hamda boshqa shaxsiy manfaatlarini himoyalashning samarali iqtisodiy vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Sug'urta tizimi, ayniqsa, kutilmagan holatlar, baxtsiz voqealar yoki turli kasalliklar kabi xavf-xatarlar oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirishda beqiyos ahamiyatga ega. Shaxsiy sug'urtaning iqtisodiy mazmuni, avvalo, xavflarni taqsimlash mexanizmini ta'minlash hamda jamiyatning moliyaviy barqarorligini qo'llab-quvvatlashdagi funksiyasi bilan belgilanadi.

Mazkur jarayon ushbu masalaning o'z vaqtida tadqiq etilishini va keng qamrovli tahlil qilinishini zarur etadi. Chunki sug'urta insoniyat taraqqiyoti davomida shakllanib

kelgan iqtisodiy aloqalarning ajralmas bo'g'ini sifatida iqtisodiy jarayonlarga muntazam ta'sir ko'rsatib kelayotgan muhim omil hisoblanadi.

Shaxsiy sug'urta turini belgilash jarayonida individning moliyaviy imkoniyatlari va real ehtiyojlari inobatga olinadi, chunki har bir sug'urta turi o'z vazifasidan kelib chiqib ma'lum darajadagi himoya mexanizmlarini taqdim etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston sug'urta bozorida shaxsiy sug'urta turlariga talabning sezilarli darajada ortib borayotgani kuzatilmoqda. Aholi daromadlarining o'sishi, moliyaviy savodxonlikning kengayishi hamda sug'urta kompaniyalarining innovatsion mahsulotlar taklif etishi natijasida ushbu segment sug'urta bozorining eng istiqbolli yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2020 yilda shaxsiy sug'urta bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlari 67,5 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu ko'rsatkich 189,7 mlrd so'mga yetib, deyarli uch barobarga oshgan. Ushbu o'sish dinamikasi sug'urta xizmatlariga bo'lgan ishonch ortib borayotganidan, davlat tomonidan yaratilayotgan huquqiy va institutsional muhit samaradorligidan hamda aholining ijtimoiy himoyaga ehtiyoji kuchayib borayotganidan dalolat beradi (2-rasm).



2-rasm. O'zbekiston sug'urta bozorida umumiy sug'urta sohasidagi shaxsiy sug'urta bo'yicha kompaniyalarda yig'ilgan sug'urta mukofotlari (mln.so'm)

O'zbekiston sug'urta bozorida shaxsiy sug'urta segmentining rivojlanish dinamikasi 2020–2024 yillar davomida barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgani aniq ko'rinadi. Xususan, to'rt yil ichida yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmining uch barobar ortishi aholining sug'urtaga bo'lgan munosabati o'zgarib, moliyaviy himoya vositalaridan faol foydalanayotganini ko'rsatadi. Bu esa mamlakatda sug'urta kompaniyalari faoliyatini yanada diversifikatsiya qilish, yangi mahsulotlar yaratish va mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish zarurligini taqozo etadi. Kelgusida shaxsiy sug'urta xizmatlarining rivojlanishi sug'urta bozorining barqarorligini mustahkamlash, moliyaviy tizimni diversifikatsiya qilish hamda aholining ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi kutiladi.

Xulosa va takliflar:

O'zbekiston sug'urta bozorida shaxsiy sug'urta xizmatlarining so'nggi yillardagi rivojlanishi ularning mamlakat moliya tizimidagi o'rni tobora mustahkamlanayotganidan dalolat bermoqda. 2020–2024 yillar oralig'ida shaxsiy sug'urta mukofotlari hajmi uch barobarga yaqin o'sib, sug'urta xizmatlariga aholining talabining ortib borayotganini tasdiqlaydi. Ushbu jarayonda demografik o'sish, aholining daromadlari ko'payishi, moliyaviy savodxonlik darajasi oshishi va sug'urta kompaniyalarining mahsulot portfelini diversifikatsiya qilishi muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Dinamikaning yuqori sur'atlari bilan birga, tarkibiy o'zgarishlar ham kuzatilib, hayot sug'urtasi, sog'liqni sug'urtalash va baxtsiz hodisalardan sug'urtalash xizmatlariga talab keskin ortmoqda. Bu esa sug'urta bozorining segmentlar bo'yicha chuqur differensiallashayotganidan hamda aholining shaxsiy moliyaviy xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojlari ortib borayotganidan dalolat beradi.

Shaxsiy sug'urta xizmatlarining dinamikasi va tarkibiy o'zgarishlari bo'yicha qo'yidagi takliflar ishlab chiqildi:

Huquqiy asoslarni mustahkamlash – shaxsiy sug'urta xizmatlarini rivojlantirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari kengaytirish, qonunchilik bazasini xalqaro tajribaga moslashtirish lozim.

Mahsulot diversifikatsiyasi – sug'urta kompaniyalari aholining turli ijtimoiy qatlamlari uchun moslashuvchan, arzon va innovatsion sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqishi zarur.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish – aholining sug'urta xizmatlaridan xabardorligi va ishonchini oshirish uchun ta'limiy dasturlar, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalarda tushuntirish ishlarini kuchaytirish kerak.

Raqamlashtirishni jadallashtirish – sug'urta xizmatlarini raqamli kanallar orqali taqdim etish, mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali xizmat ko'rsatishni kengaytirish bozorning tezkor va shaffof rivojlanishini ta'minlaydi.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish – xorijiy sug'urta kompaniyalari bilan hamkorlik qilish orqali ilg'or tajribalarni joriy etish va yangi texnologiyalarni o'zlashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni. 2022-yil 28-yanvar.
2. I.G'.Kenjatev, S.R.Matniyazova, G.D.Adilova Sug'urta mahsulotlari sotishni tashkil etish. O'quv qo'llanma. "Iqtisod-moliya"-2018.
3. X.M.Shennayev, I.K.Ochilov, S.E.Shirinov, I.G'Kenjayevlar "Sug'urta ishi" O'quv qo'llanma. – Toshkent.: "Iqtisod-moliya 2014. 96-b.
4. X.M.Shennayev, I.K.Ochilov, S.E.Shirinov, I.G'Kenjayevlar "Sug'urta ishi" O'quv qo'llanma. – Toshkent.: "Iqtisod-moliya 2014. 96-b.
5. Taniyev A.B. Sug'urta ishi. O'quv qo'llanma. – Samarqand.: "SamDu", nashriyoti 2022. 70-b.
6. https://napp.uz/uz/pages/malumot_sayt_ma'lumotlari_asosida_tayyorlandi.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

